# Qozondan uchuvchi repatriatsiya qatnoviga sotuv ochiq

**2020 29 Sentabr**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'z Vatanlariga qaytib kelishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi 2020-yil 23-sentyabr kuni Qozon shahridan Toshkentga amalga oshiriladigan charter qatnoviga erkin sotuv ochilganini ma'lum qiladi.

Parvozlar jadvali va aviachiptalar narxi bilan aviakompaniyaning rasmiy veb-saytida tanishishingiz mumkin.

| Yo'nalish | Reys raqami | Uchish/ketish vaqti | |
|---|---|---|---|
| Qozon - Toshkent | HY 3650 | 11:00/16:30 | Chipta sotib olish |

Rossiya Federatsiyasining shaharlaridan O'zbekistonga parvoz qilish faqat PCR tekshiruvidan o'tganligi to'g'risidagi (qatnov jo'nashidan oldin kamida 72 soat amal qiluvchi) ma’lumotnoma taqdim etilgan holda ruxsat berilishiga e'tibor qaratishingizni so'raymiz. PCR ma’lumotnomasi bo'lmagan yo'lovchilar aviakompaniya qatnovlariga qo'yilmaydi.

Aviachiptalarni aviakompaniya veb-saytidan, shuningdek, "Uzbekistan Airways " AJning eng yaqin sotuv ofislaridan yoki mintaqangizdagi aviakompaniya tashuvlarini sotish agentliklaridan sotib olish mumkin.

Sizni aviakompaniyamiz qatnovlarida ko'rishdan mamnun bo'lamiz!

Sizga yoqimli va xavfsiz parvozlar tilaymiz!